

PRAGMATIKADA NUTQIY AKT TASVIRI

Jumaqulova Shaxnoza Qudrat qizi

Termiz davlat universiteti, Ingliz tili va
adabiyoti kafedrasida stajyor-tadqiqotchisi

E-mail: shaxnoz2023@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7085429>

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi pragmatikada tadqiq etiluvchi nutqiy aktlar va ularning amalga oshirish bosqichlari bayon etilgan. Badiiy asarlardan nutqiy aktlar tanlab olinib, ularning lokutiv, illokutiv, perlokutiv aktlari tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar: nutqiy akt, lokutiv akt, illokutiv akt, illokutiv kuch, perlokutiv akt.

Soʻzlar insonlarning maʼlum bir voqea yoki shaxsga nisbatan munosabatini, his-tuygʻusini ifodalashda qoʻllaniladi va ular yordamida soʻz birikmalari va nutq yaratiladi. Nutq orqali insonlar oʻz fikrlarini yetkazishadi va bu nutqning asosiy vazifasi sifatida qaralib, axborot uzatish hodisasiga aylanadi. Nutqni soʻzlovchi tinglovchi yetkazib berishi, uning taʼsiri va ahamiyati kabi muammolar bugungi kunda pragmatik sohasida dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Pragmatika XX asrning ikkinchi yarmidagi rivojini nutqiy akt nazariyasining toʻliqroq koʻrinishdagi lingvofalsafiy taʼlimot sifatida shakllanishi bilan bogʻliqligini taʼkidlagan Sh.Safarov, nutqiy akt tushunchasini oldingi davrlarda ham V.Humboldt, Sh.Balli, K.Byuller, E.Benvenist, M.Baxtin kabi olimlarning taʼlimotlarida mavjud boʻlganligini, ammo nutqiy akt nazariyasini toʻliq bir taʼlimot sifatida ingliz mantiqshunosi J.Ostin, amerikalik psixolog J.Syorl va boshqalarning ishlarida shakllanganligini eʼtirof etadi [4, 77].

M.Buzrukovaning talqinicha, nutq akti pragmatikaning asosiy tushunchalaridan biri boʻlib, til harakati qoidalariga muvofiq, amalga oshiriladigan maqsadli kommunikativ harakatdir [2, 108]. J.Ostin nutq aktlarini lokutiv, illokutiv, perlokutiv aktlarga ajratganligini Arso Setyaji [1, 18] qayd etgan boʻlsa, R.Choerunnisa nutq harakatlarini bajarishda Yule ham uchta bogʻliq harakat mavjudligini taklif qilganligini yaʼni ular lokutiv, illokutiv va perlokutiv aktlarni oʻz ichiga olishini nazarda tutadi [7, 8]. Shu bilan birga, Sh.Safarov ham nutqiy aktning uch bosqichli faoliyat va ularda uch xil harakat bajarilishini taʼkidlaydi [4, 81].

Arso Setyaji lokutiv aktlar asosiy maʼno va gap bilan bogʻliq maʼno ekanligi haqida soʻz yuritib, shu oʻrinda J.Ostinning quyidagi fikrini keltiradi: lokutiv aktlar – bu maʼlum bir tovushni talaffuz qilish yoki maʼlum belgilar qoʻyish, muayyan soʻzlarni ishlatish va ularni maʼlum bir tilning grammatik qoidalariga va maʼlum bir his-tuygʻularga muvofiq ishlatish va ular olingan til qoidalariga koʻra belgilanadigan maʼlum bir murojaat qilish kabi nutq harakatidir [1, 18].

Sh.Safarovning talqinicha, illokutsiya shaxslararo (muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi) munosabatlarning ifodalanishi bo'lib, aynan shu kommunikativ maqsaddan qaysi biri ma'lum sharoitda voqelanishiga nisbatan nutqiy tuzilmaning illokutiv kuchi (illocutionary force) aniqlanadi [4, 82].

J.Syorl illokutiv aktlarning beshta asosiy turga ya'ni representativlar (yoki assertivlar), direktivlar, komissivlar, ekspressivlar va deklarativlarga ajratadi [5, 1]. J.Syorl tasnifi nutqiy harakatlarning asosiy xususiyatlarini umumlashtirib, tizimlashtirgan holda o'rganish va tahlil qilish imkonini beradi.

Perlokutiv akt nutqiy faoliyatning ta'sir o'tkazish bosqichi bo'lib, perlokutsiya tinglovchi ongiga, his-tuyg'ulariga va xatti-harakatiga ta'sir o'tkazish harakatini Sh.Safarov talqin etadi [4, 82].

Nutqning sodir bo'lish bosqichlari misolida badiiy asarlarda uchraydigan nutqiy aktlar orqali lokutiv, illokutiv, perlokutiv aktlar tahlil qilinadi.

Tog'ay Murodning "Oydinda yurgan odamlar" qissasida quyidagi parcha keltirilgan: "– Xushvaqt bo'l, qassob, xushvaqt bo'l, - dedi sovchilar." [6, 4].

Nutqiy akt bosqichlari asosida ushbu gapning lokutiv akti "Xushvaqt bo'l, qassob, xushvaqt bo'l, - dedi sovchilar" bo'lsa, illokutiv aktda "dedi" illokutiv fe'li mavjud bo'lib, u xabar berish illokutiv kuchini ifodalaydi, shuningdek, illokutiv assertiv (reprezentativ) turini bildiradi va illokutiv akt "sovchilar qassob mehmon kelganda aytiladigan "Xush kelibsiz!" iborasiga javoban xushvaqt bo'lishini aytganidan xabardor qilish"ni ifodalaydi. Perlokutiv aktda "sovchilarning qassobga mehmon kelganda aytiladigan "Xush kelibsiz!" iborasiga javoban xushvaqt bo'lishi aytilganidan xabardor bo'lish" va perlokutiv akt ta'siri tinglovchini xabardor qilish hisoblanadi.

"– Omadingiz keldi! – injener iyagini cho'zib qiya eshik tomonga imo qildi." [3, 181] nutqiy akti "Nur borki, soya bor" romanidan keltirilgan parcha hisoblanadi. Nutqiy aktlar jarayoni bosqichlari asosida lokutiv akt "Omadingiz keldi! – injener iyagini cho'zib qiya eshik tomonga imo qildi" bo'lsa, axborot yetkazishda xabar berish illokutiv kuchi mavjud bo'lib, u illokutiv assertiv (reprezentativ) turiga oid sanaladi va "ishi o'ngidan kelgani baxtligini aytgan injener iyagini cho'zib qiya eshik tomonga imo qilganidan xabardor qilish" illokutiv akt hisoblanadi. Perlokutiv akt "ishi o'ngidan kelgani baxtligini aytgan injener iyagini cho'zib qiya eshik tomonga imo qilishi natijasida biror harakat bajarilishi" va perlokutiv akt ta'siri tinglovchiga sabab bo'lishi hisoblanadi.

Yuqoridagi keltirilgan nazariy ma'lumotlar hamda tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, nutqiy akt bosqichlari hisoblangan lokutiv, illokutiv va perlokutiv aktlar so'zlovchining nutqini hamda uning mazmunini tinglovchiga yetkazib berishda va uni izohlashda ahamiyatli sanaladi. Ushbu tadqiqot natijalari

pragmalingvistika sohasining kelgusi ilmiy ishlarining rivojida istiqbolli sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Arso Setyaji. How speech acts work in translation: an analysis on speech acts in translating a script of Titanic film //UNS Journal of language studies – 2014. – Vol. 03. – №01. – P.18.
2. Buzrukova M. O'zbek badiiy matnida undash konstruksiyalari //Xorijiy filologiya – 2020. – №1. – B.108.
3. Hoshimov O'. Nur borki, soya bor. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1977. – B.181.
4. Safarov Sh. Pragmalingvistika: monografiya. – Toshkent, 2008. – B.77-82.
5. Searle J.R. A classification of illocutionary acts //Language in society –1976. – Vol. 5 – №1. – P.1.
6. Tog'ay M. Oydinda yurgan odamlar. – T.: Nurafshon-kitob-ta'minot, 2022. – B.4.
7. Choerunnisa R. An analysis of speech acts in the dead poets society: a thesis. – University of Yogyakarta, 2015. – P.8.